

✓

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”**

Rektor G. Rixsiyeva

2025 yil "30" 06



**MAKROIQTISODIYOT**  
**FANINING O‘QUV**  
**DASTURI**

**Bilim sohasi:** 400000 – Biznes, boshqaruv va huquq

**Ta‘lim sohasi:** 410 000 – Biznes va boshqaruv

**Ta‘lim yo‘nalishi:** 60411100 – Iqtisodiyot  
60411100-Jahon iqtisodiyoti va xalqaro  
iqtisodiy munosabatlar

Toshkent – 2025

Tashqi siyosat va xalqaro iqtisodiy munosabatlar  
instituti direktori

\_\_\_\_\_

kafedrası mudiri


\_\_\_\_\_

ARM boshlig'i


imzo

  
Arifjanov G.T.

imzo

  
Kadirova Z.A.

imzo

  
M. Yuldasheva

<b>Fan/modul kodi</b> MAKIQ1505		<b>O'quv yili</b> 2027-2028	<b>Semestr</b> 5	<b>ECTS - Kreditlar</b> 5	
<b>Fan/modul turi</b> Majburiy		<b>Ta'lim tili</b> O'zbek/rus		<b>Haftadagi dars soatlari</b> 4	
<b>1.</b>	<b>Fanning nomi</b>	<b>Auditoriya mashg'ulotlari (soat)</b>	<b>Mustaqil ta'lim (soat)</b>	<b>Jami yuklama (soat)</b>	
	<b>Makroiqtisodiyot</b>	48	102	150	
<b>2.</b>	<p style="text-align: center;"><b>I. Fanning mazmuni:</b></p> <p><b>Fanni o'qitishdan maqsad</b> – talabalarda iqtisodiyotdagi jarayonlarni, aynan, milliy iqtisodiyot doirasidagi makro iqtisodiy holatlarni, makro darajadagi barcha iqtisodiy munosabatlarni nazariy-usulbiy jihatdan o'rganish orqali bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.</p> <p><b>Fanning vazifasi</b> – talabalarga ishlab chiqarish, taqsimot, almashuv va iste'mol jarayonida iqtisodiy sub'ektlarning milliy iqtisodiyotga xos xatti-harakatlarini, ular orasidagi munosabatlarni va iqtisodiyotni bir butun holda tadqiq etish, tegishli taklif va xulosalar chiqarishni o'rgatishdan iborat.</p> <p style="text-align: center;"><b>Xorij tajribasiga muvofiqligi</b></p> <p>Mazkur o'quv dastur xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi top 300 talik ro'yxatga kiruvchi <b>Edinburg universiteti</b> (29 THE, 27 QS) xorijiy tajribasini inobatga olgan holda takomillashtirildi. <a href="http://www.drps.ed.ac.uk/24-25/dpt/cxecnm10069.htm">http://www.drps.ed.ac.uk/24-25/dpt/cxecnm10069.htm</a></p> <p style="text-align: center;"><b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b></p> <p style="text-align: center;"><b>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p style="text-align: center;"><b>1-mavzu. Makroiqtisodiyotga kirish</b></p> <p>“Makroiqtisodiyot” fanining shakllanishi tarixi. Keynschilar, neoklassiklar, monetaristlar. Jon Meynard Keynsning “Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi” asari. “Makroiqtisodiyot” fanining predmeti va ob'ekti.</p> <p style="text-align: center;"><b>2-mavzu. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar</b></p> <p>Makroiqtisodiy holatni ifodalovchi ko'rsatkichlar. Milliy hisob tizimi. Yalpi ichki mahsulot, yalpi milliy mahsulot, milliy daromad, sof ichki mahsulot, shaxsiy daromad, tassaruftagi daromad. Yalpi ichki mahsulotni aniqlash usullari, daromadlar va xarajatlar usuli, qo'shilgan qiymatlar usuli. Yopiq va ochiq iqtisodiyot tushunchasi.</p>				

### **3-mavzu. “AD-AS” modeli (“Aggregate demand-Aggregate supply”)**

Yalpi talab va taklif tushunchasi. Yalpi talab va unga ta'sir etuvchi omillar, Yalpi taklif va unga ta'sir etuvchi omillar, “AD-AS” modeli, Narxlarning noelastikligi samarasi, Yalpi talab egri chizig'i va unga ta'sir etuvchi omillar. Foiz stavkasi samarasi. Boylik samarasi.

### **4-mavzu. Iste'mol, jamg'arish va investisiya**

Iste'mol bozorining mohiyati. Haqiqiy iste'mol (C). Avtonom xarajatlar. Iste'mol funksiyasi va uning grafigi, daromad va iste'mol o'rtasidagi bog'liqlik. Iste'mol va jamg'arishning o'rtacha hamda cheklangan miqdori.

### **5-mavzu. Iqtisodiyotning siklli rivojlanishi**

Makroiqtisodiy beqarorlik, iqtisodiy sikl tushunchasi, davriy tebranishlarning turlari. Ekzogen nazariyalar. Endogen nazariyalar.

### **6-mavzu. Ishsizlik**

Ishsizlik tushunchasining mohiyati. Ishsizlikning ko'rinishlari. Friksion ishsizlik. Tarkibiy ishsizlik. Ishsizlikning inflyatsiyani tezlashtirmaydigan darajasi (NAIRU - non-accelerating-inflation-rate-of unemployment).

### **7-mavzu. Inflyatsiya**

Inflyatsiya va uning kelib chiqish sabablari. Talab inflyatsiyasi va taklif inflyatsiyasi. Kutilayotgan inflyatsiya. Kutilmagan inflyatsiya.

### **8-mavzu. Pul bozori. Pul bozorida muvozanat**

Pul tushunchasi va Pul bozori. Pul massasi. Pul agregatlari. Pul bozorida muvozanat.

### **9-mavzu. Bozor iqtisodiyotida davlatning roli**

Iqtisodiyotni tartibga solishning mohiyati va zarurligi. Iqtisodiyotni tartibga solishning bozor mexanizmi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish, uning maqsadi va vazifalari. Davlatning iqtisodiyotga ta'sir qilish usullari va vositalari.

### **10-mavzu. Monetar siyosat**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida monetar siyosat. Pul-kredit siyosatining maqsadlari va dastaklari. Ochiq bozordagi operatsiyalar. Majburiy zahiralash normasi.

### **11-mavzu. Fikal siyosat**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida fiskal siyosat. Fiskal siyosatning mohiyati va usullari. Davlat xarajatlari multiplikatori. Diskret va nodiskret fiskal siyosat.

## 12-mavzu. Iqtisodiy o'sish

Iqtisodiy o'sish tushunchasining mohiyati. Iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi omillar. Iqtisodiy o'sishga davlatning ta'sir etish imkoniyatlari. Iqtisodiy o'sishning umumiy tavsifi modellari.

### III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

*Makroiqtisodiyot fani bo'yicha amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:*

1. "Makroiqtisodiyot" fanining predmeti va ob'ekti
2. Makroiqtisodiy holatni ifodalovchi ko'rsatkichlar
3. Yalpi talab va yalpi taklifga ta'sir etuvchi omillar
4. Iste'mol, jamg'arish, investisiya funksiyalari va ularning grafiklari
5. Makroiqtisodiy beqarorlik, davriy tebranishlarning turlari
6. Ishsizlik tushunchasining mohiyati. Ishsizlikning ko'rinishlari
7. Inflyatsiyaning kelib chiqish sabablari va iqtisodiy oqibatlari
8. Pul tushunchasi va Pul bozori. Pul massasi. Pul agregatlari.
9. Iqtisodiyotni tartibga solishning mohiyati va zarurligi
10. Pul-kredit siyosatining maqsadlari va dastaklari
11. Fiskal siyosatning mohiyati va usullari
12. Iqtisodiy o'sishning mohiyati va unga ta'sir etuvchi omillar

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

### Makroiqtisodiyot mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. "Makroiqtisodiyot" fanining tadqiqot usullari
2. Yalpi ichki mahsulot va uni hisoblash usullari
3. Yalpi talab va yalpi taklifga ta'sir etuvchi omillar
4. Iste'mol, jamg'arish va investisiyaga ta'sir etuvchi omillar
5. Inqirozlarning mazmuni va turlari, Stagnatsiya. Stagflatsiya
6. Ishsizlikning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari
7. Inflyatsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari
8. Pulga bo'lgan talab va taklif: ularga ta'sir etuvchi omillar
9. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish bo'yicha zamonaviy nazariyalar: Keynschilik, monetar va yangi klassik modellar
10. Pul-kredit siyosatini amalga oshirish yo'llari
11. Byudjet-soliq siyosatini amalga oshirish yo'llari
12. Iqtisodiy o'sishning klassik va keynscha modellarining umumiy tavsifi

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan slaydlar va tahliliy ma'lumotlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

3.	<p style="text-align: center;"><b>V. Kurs ishining namunaviy mavzulari</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Iqtisodiy o'sishning asosiy omillari va strategiyalari</li> <li>2. Kambag'allikni kamaytirish va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik</li> <li>3. Innovatsiyalar va texnologik taraqqiyotning iqtisodiy o'sishga ta'siri</li> <li>4. Kichik biznes va tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotdagi o'rni</li> <li>5. Barqaror iqtisodiy rivojlanish va atrof-muhit muhofazasi</li> <li>6. Ishsizlik turlari va ularning iqtisodiyotga ta'siri</li> <li>7. Mehnat bozori va iqtisodiy siyosat</li> <li>8. Ishsizlikning ijtimoiy oqibatlari va uning kamaytirish yo'llari</li> <li>9. Yoshlar va ayollar bandligi muammolari</li> <li>10. Ishsizlik va inflyatsiya o'rtasidagi bog'liqlik</li> <li>11. Inflyatsiya sabablari va uni tartibga solish usullari</li> <li>12. Inflyatsiya va aholining turmush darajasi</li> <li>13. Pul-kredit siyosati va inflyatsiyani tartibga solish</li> <li>14. Deflyatsiya va stagflyatsiya: sabablari va oqibatlari</li> <li>15. Inflyatsiyaning investitsiyalar va ishlab chiqarishga ta'siri</li> <li>16. Markaziy bankning pul-kredit siyosati va uning iqtisodiyotga ta'siri</li> <li>17. Bank tizimi va moliyaviy barqarorlik</li> <li>18. Monetar siyosat va iqtisodiy barqarorlik</li> <li>19. Kapital bozori va uning milliy iqtisodiyotga ta'siri</li> <li>20. Raqamli moliyaviy texnologiyalar va ularning iqtisodiyotdagi roli</li> <li>21. Davlat byudjeti va uning iqtisodiyotga ta'siri</li> <li>22. Soliq siyosati va iqtisodiy rivojlanish</li> <li>23. Byudjet taqchilligi va davlat qarzi muammosi</li> <li>24. Davlat xarajatlarining iqtisodiy o'sishga ta'siri</li> <li>25. Ijtimoiy ta'minot va davlat moliyasi</li> <li>26. Globalizatsiyaning milliy iqtisodiyotlarga ta'siri</li> <li>27. Xalqaro savdo va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi</li> <li>28. Xalqaro investitsiyalar va kapital harakati</li> <li>29. Jahon iqtisodiyotidagi inqirozlar va ularning milliy iqtisodiyotlarga ta'siri</li> <li>30. O'zbekistonning tashqi savdo siyosati va iqtisodiy rivojlanishi</li> </ol>
	<p style="text-align: center;"><b>VI. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</b></p> <p><b>Makroiqtisodiyot fani bo'yicha:</b></p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• milliy iqtisodiyot amal qilishining makro parametrlari to'g'risida <i>tasavvurga ega bo'lishi</i>;</li> <li>• milliy iqtisodiyot doirasidagi makro iqtisodiy holatlarni, makro darajadagi barcha iqtisodiy munosabatlarni nazariy-usulbiy jihatdan o'rganish, ma'ruza materiallarini o'zlashtirish va chuqur tahlil qila olish asosida milliy iqtisodiyotiga oid nazariy materiallarga tayangan holda amaliy va ilmiy faoliyatni mustaqil tashkil etishni <i>bilishi va ulardan foydalana olishi</i>;</li> <li>• O'zbekistondagi islohotlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlari, uning natijasi, makroiqtisodiyotning asosiy, tub muammolari, milliy iqtisodiyot uchun</li> </ul>

	<p>maqsadga muvofiq faoliyat yo'nalishlarini tahlil qilish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak</i>;</p> <p>ishlab chiqarish, taqsimot, almashuv va iste'mol jarayonida iqtisodiy sub'ektlarning milliy iqtisodiyotga xos xatti-harakatlarini, ular orasidagi munosabatlarni va iqtisodiyotni bir butun holida tadqiq etish bilan bog'liq ilmiy va amaliy faoliyatni mustaqil tashkil etish <i>malakalariga ega bo'lishi kerak</i>.</p>
4.	<p style="text-align: center;"><b>VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma'ruzalar;</li> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• seminarlar ( mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• taqdimotlarni qilish;</li> <li>• individual loyihalar;</li> <li>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.</li> </ul>
5.	<p style="text-align: center;"><b>VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test topshirish.</p>
6.	<p style="text-align: center;"><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <p>1. Goodwin N. et al. Principles of economics in context. – Routledge, 2019.</p> <p>2. G'.E.Zaxidov, M.T.Asqarova, Z.A. Djumayev, L.F.Amirov, H.A. Hakimov. Makroiqtisodiyot. Dsrlik. - T.: 2019. - 290 bet.</p> <p>3. N.Xolmatov. N.Imomova. «Makro va mikroiqtisodiyot» fanidan o'quv qo'llanma. – T.: ToshDSHI, 2020. – 268-b.</p> <p style="text-align: center;"><b>Qo'shimcha adabiyotlar</b></p> <p>4. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. - Toshkent: O'zbekiston, 2024.</p> <p>5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. - Toshkent: O'zbekiston, 2023.</p> <p>6. Xolmatov N., Imomova N. «Makroiqtisodiyot» fanidan o'quv qo'llanma. – T.: ToshDSHI, 2012, 152 bet.</p> <p>7. Экономическая теория: учебник / И.К. Станковская, И.А. Стрелец.- 5-е изд., перераб. и доп.–М.:Эксмо, 2010.- 480 стр.- (Полный курс MBA)</p> <p>8. Makroiqtisodiyot. Amaliy qo'llanma. Masalalar, testlar, vaziyatlar.T.:2001 y.</p> <p>9. Ishmuxammedov A.E., Djumayev Z.A., Jumayev Q.X. Makroiqtisodiyot. O'quv qo'llanma. T.: 2005 y. 192 b., 29 b.</p> <p style="text-align: center;"><b>Scopusdan maqolalar</b></p> <p>10. Bernanke B. S. The new tools of monetary policy //American Economic Review. – 2020. – T. 110. – №. 4. – C. 943-983.  <a href="https://www.aeaweb.org/articles?id=10.1257/aer.110.4.943">https://www.aeaweb.org/articles?id=10.1257/aer.110.4.943</a></p>

11.Chukwuka N. C., Okonkwo V. I., Adigwe P. K. Fiscal policy measures and performance of the nigerian economy: 2004–2024 //African Banking and Finance Review Journal. – 2025. – T. 20. – №. 4. – C. 105-124.  
<https://www.abfrjournal.com/index.php/abfr/article/view/319>

**Axborot manbalari**

- 11.[www.mf.uz](http://www.mf.uz) - O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi
- 12.[www.idm.uz](http://www.idm.uz) - O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi
- 13.[www.stat.uz](http://www.stat.uz)- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi
- 14.[www.customs.uz](http://www.customs.uz) - O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi
- 15.[www.cbu.uz](http://www.cbu.uz)- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki
- 16.[www.cer.uz](http://www.cer.uz) - O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi

7. Fan dasturi “Iqtisodiyot va menejment” kafedrasida ishlab chiqilgan va 2024-yil “24” 06 dagi “27”-sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.  
 Fan dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2025-yil “28” 06 dagi “11”-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

8. **Fan/modul uchun mas’ullar:**  
 Imamova N.A. - TDSHU, “Iqtisodiyot va menejment” kafedrasida katta o‘qituvchisi

9. **Taqrizchilar:**  
 Sultanova L.Sh. – O‘zbekiston Milliy Universiteti “Makroiqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, i.f.n.  
 Kamilova M.X.– TDSHU “Tashqi iqtisodiy faoliyat” kafedrasida i.f.n., dotsent